

## ERKIN VOHIDOV SHE'RIYATIDA MILLIY RUHIYATNI IFODALASHDA METONIMIYANING O'RNI

Muzaffarova Zarrina Umarjon qizi

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti  
universiteti o'qituvchisi  
zarrinamuzaffarova85@gmail.com

### ANNOTATSIYA

*Mamlakatimizda hozirgi kunda barcha jabhalar singari ma'naviy-ma'rifiy sohalarda ham ulkan imkoniyatlar asnosida yangidan yangi o'zgarishlarga keng yo'l ochilmoqda. Milliy masifikuramizning timsoli bo'lmish ona tilimizga bo'lgan e'tibor oshmoqda. O'zbek tilining imkoniyati shu qadar kengki, undagi ma'no tovlanishlari, jumjimadorlik, tozalik va nafislik o'z o'rnida qo'llangandagina juda ham saviyali ulkan mohiyatga ega badiiy va ilmiy ijod namunalari yaratilishiga zamin hozirlaydi. Ushbu maqolada milliy ruhiyat ifodasidasida ko'chim turlaridan biri hisoblanmish metonimiyaning o'rni ma'no turlari tahlil qilingan va yetarlicha izohlab berilgan.*

**Kalit so'zlar:** Erkin Vahidov, milliy ruhiyat, metonimiya ,she'riyat, leksik ma'no, xususiy ma'no, qadriyat, lingvistik vosita.

### THE ROLE OF METONYMY IN THE EXPRESSION OF THE NATIONAL SPIRIT IN ERKIN VAHIDOV'S POETRY

#### ABSTRACT

*In our country, as well as in all aspects, the spiritual and educational spheres are opening a wide path for new changes due to huge opportunities. Attention to our mother tongue, which is the symbol of our national ideology, is increasing. The potential of the Uzbek language is so wide that only when its meanings, silence, purity and elegance are used in their place, it prepares the ground for the creation of artistic and scientific creations of a very high level. In this article, the role of metonymy, which is one of the types of migration in the expression of the national psyche, is analyzed and sufficiently explained.*

**Keywords:** Erkin Vahidov, national psyche, metonymy, poetry, lexical meaning, special meaning, value, linguistic tool.

## KIRISH

Mamlakatimizda hozirgi kunda barcha jabhalar singari ma’naviy-ma’rifiy sohalarda ham ulkan imkoniyatlar asnosida yangidan yangi o‘zgarishlarga keng yo‘l ochilmoqda.O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev ta’kidlaganidek: “Agar jamiyat hayotining tanasi iqtisodiyot bo‘lsa, uning joni va ruhi ma’naviyatdir. Biz yangi O‘zbekistonni barpo etishda ana shu ikkita mustahkam ustunga, ya’ni bozor tamoyillariga asoslangan kuchli iqtisodiyotga hamda ajdodlarimizning boy merosi, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga asoslangan kuchli ma’naviyatga tayanamiz”<sup>1</sup>. Shunday ekan, bizda milliy va umuminsoniy qadriyatlarni shakllanishida ona tili eng asosiy vosita hisoblanadi.

Til –jamiyat,millatning o‘zligini namoyon qiluvchi ko‘zgusi hisoblanadi. Xalq qalbiga yo‘l uning o‘z ona tilini bilishi, uning urf-odat, milliy qadriyatlariga nisbatan hurmat va e’tibori, sodiqligidan boshlanadi. Zero, Yurtboshimiz ta’kidlaganlaridek: “Biz milliy ma’naviyatni har tomonlama yuksaltirish masalasini o‘z oldimizga asosiy vazifa qilib qo‘yar ekanmiz, bugungi kunda ma’naviyatimizni shakllantiradigan va unga ta’sir o‘tkazadigan barcha omil va mezonlarni chuqur tahlil qilib, ularning bu borada qanday o‘rin tutishini yaxshi anglab olishimiz maqsadga muvofiq bo‘ladi”<sup>2</sup>.

## ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Dunyo adabiyotshunosligida jahon xalqlari she’riyatida milliy ruh ifodasi, ushbu poetik hodisaga xos badiiy-estetik qonuniyatlar, uning yuzaga kelish tamoyillari, obraz va motivlar mohiyatidagi talqini, muayyan millat poetik tafakkuri yangilanishiga ta’siri singari muhim masalalar o‘rganilib kelinmoqda. Ushbu yo‘nalishdagi izlanishlarni adabiyotshunoslik oldidagi zamonaviy talablar darajasida izchil davom ettirish har qachongidan ham muhim bo‘lib turibdi<sup>3</sup>.

Shoir va yozuvchilarning xalq tilini chuqur bilishi, milliy ruhiyat, qadriyat va an’analarni qay tarzda o‘z asarlariga singdira olishi, tuganmas so‘z boyligiga ega bo‘lishi, so‘zning ta’sir kuchini yurak –yurakdan his eta olishi, har bir so‘zni ma’no nozikligini ilg‘agan holda aynan shu so‘zlardan mahorat bilan foydalana olishi muhim ahamiyat kasb etadi. O‘zbek she’riyatining buyuk dahosi Erkin Vohidov shaxsiyati haqida gap ketganda, bizning ko‘z oldimizga she’rlarida Vatan madhini qadriyatlarini uning milliy urf-odat an’analarini tarannum etgan adib

<sup>1</sup> Mirziyoyev Sh. Insonparvarlik, ezgulik va bunyodkorlik – milliy g‘oyamizning poydevoridir. – Toshkent, 2021. – B. 4.

<sup>2</sup> Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. – Toshkent: O‘zbekiston, 2016.–B.8.

<sup>3</sup> Ўсарова Л. И. Абдулла Орипов шеъриятида миллий рух ифодаси. Филол .фналари номзод.. автореф. –Тошкент, 2020. – Б. 3.

jonlanadi.Ijodkorning so‘z qo‘llash uslubi,o‘ziga xosligi, mahorati kabi jihatlar hozirgi kunda turli xil yo‘nalishlarda o‘rganilmoqda.

## NATIJALAR

Metonimiya – yunoncha so‘z bo‘lib, “qayta nomlash” degani. Metonimiya ham ma’no ko‘chish usullaridan biri bo‘lib, bunda “bir predmetning, belgining , harakatning nomi boshqasiga o‘xshashlik asosida emas, bog‘liqlik asosida ko‘chiriladi”<sup>4</sup>. Metominiya ham yangi ma’no hosil qilish jarayoni va bu jarayon natijasining barqarorligiga ko‘ra lison va nutqqa dahldor hodisa, boshqacha aytganda metonimik hosila ma’no sof yoki lisoniy bo‘lishi mumkin<sup>5</sup>.

1. Bir predmet nomi shu predmetdagi boshqa bir predmetga ko‘chiriladi.
2. Bir predmet nomi shu predmetga soslangan o‘lchov birligining nomi bilan xizmat qiladi.
3. Bir predmet nomi shu predmet asosida hosil bo‘ladigan predmetga ko‘chiriladi.
4. Harakatning nomi shunday harakat natijasida hosil bo‘ladigan predmatga ko‘chiriladi.

Metonimianing o‘zbek tilida o‘zlashma so‘zlar bilan kirib kelishi faqat til faktidagina kuzatiladi.Nutq jarayonida uni kuzatish mumkin emas.Chunki qaysi tildagi so‘zda nutqiy metonimiya sodir bo‘lar ekan,o‘sha tilda,o‘sha nutqdagina ko‘rinadi.Keyin o‘z qimmatini yo‘qotadi<sup>6</sup>. Metonimiyani olimlar turlicha tasnif etadilar.Professor M.Mirtojiyev metonimiyani tasnif etishda ma’no xususiyatiga asoslanish lozimligini ta’kidlab uni 2 ga ajratadi:

1. Leksik ma’noga asoslangan metonimiya;
2. Xususiy ma’noga asoslangan metonimiya.

Umumlashgan leksik ma’noga asoslangan metonimiya lug‘aviy birlik sifatida so‘z tarkibida aks etuvchi leksik ma’noga asoslanib sodir bo‘luvchi metonimiyadir.Ularga hosil qiluvchi va hosila ma’nolar bir-biridan farqli sema bilan ajralib umumiyligini sema bilan o‘zaro tutashib turadi.Xususiy leksik ma’noga asoslangan metonimiya atoqli otlarning turdosh otlarga o‘tish natijasida bo‘ladi. Metonimianing bu ko‘rinishini ko‘pgina tilshunoslar hosila ma’no yuzaga kelishining metafora,metonimiya, sinekdoxolar qatoridagi ko‘rinishlaridan biri deb qayd etadilar.Ingliz tili mutaxasisi N.Rayevska metonimiyani sodir etuvchi hodisalardan biri ma’noning abstraksiyalanishi deb talqin etadi.Shuni unutmaslik kerakki, bunda

<sup>4</sup> Tursunov S. va boshqalar. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. – Toshkent, 1992. – B. 58.

<sup>5</sup> Shoabdurahmonov va bosh

<sup>6</sup> Suvonova R. So‘z o‘zlashtirish va metonimiya. “O‘zbek tili va adabiyoti” jurnali. – Toshkent, 2000. – B. 6 49-50.

ham hosil qiluvchi va hosila ma'nolar referentlari o'rtasidagi aloqadorlik turadi. Bu metonimiyaga xos xususiyatdir<sup>7</sup>.

She'riyatda ham metonimiya hodisasidan unumli foydalilanadi. Ko'chim turlaridan biri hisoblanmish metonimiya Erkin Vohidov ijodida salmoqli o'rinni egallaydi. Adib she'rlarini tahlil qilar ekanmiz, ushbu asarlarda milliy ruh, qadriyatlar ifodalangan o'rirlarda metonimiya hodisasi lingvistik vosita bo'lib xizmat qilgan.

Yosh chinorsan, o'zni tutib olarsan,

**"Ilik uzildi"** dan o'tib olarsan.

Yuzlab bahorlarni kutib olarsan,

Vatanim, muborak bo'lsin navro'zing.<sup>8</sup>

"Navro'z nashidasi" nomli she'ridan olingen yuqoridagi misralarda adib "**Ilik uzildi**" birikmasida aynan o'z ma'nosida emas balki aynan shu oyda kuzatiladigan ma'lum bir vaqt ni ya'ni bahor oylariga kelib dasturxonda sabzavotlar ancha kamayib ketadi, shuning uchun bahorda odam o'zida vitaminlar yetishmayotganligini sezadi. Bunday fasliy toliqish, darmonsizlanishni xalqimiz "**ilik uzildi davri**" deb ataydi. Shoir ham aynan shu vaqt ni ifodalash uchun *ilik uzildi* metonimiyasini qo'llagan.

Olim Chirchiq o'ylar tun bo'yi,

Tinmay chekar, vaqt i juda ziq.

Erta tongdan korjoma kiyib,

Ishga tushar mehnatkash **Chirchiq**.<sup>9</sup>

Yuqoridagi misralarda ham Chirchiq joy nomi, hududni emas, balki shu hududning mehnatkash xalqiga ishora qilib kelyapti va shu yerda yashovchi kishilarga nisbatan qo'llanilgan. Erkin Vohidov she'riyatida joy nomlari bilan bog'liq metonimiyalarni ko'plab uchratish mumkin:

Mehmon o'zi kimdir? – Abay, Jambuldir.

Mezbon o'zi kimdir? – Jumanbulbuldir.

**Fazogir, Boyqo'ng'ir** mehmondir bukun,

**Olim Chirchiq** esa mezbondir bukun.

**Ohangar, Bekobod** qildi-yu taklif,

**Ma'danchi ,Jezqazg'on** buyurdi tashrif.

(E. Vohidov. Qozoq oqinlariga)

<sup>7</sup> Mirtojiyev M. O'zbek tili semasiologiyasi. – Toshkent, 2010. – B. 102.

<sup>8</sup> Воҳидов Э. Сайланма. З-жилд. Умрим дарёси.— Тошкент, 2000. — Б.132

<sup>9</sup> Воҳидов Э. Сайланма. 1-жилд. Ишқ савдоси. — Тошкент, 2000.—Б.38.

Yuqoridagi misralarda ham adib joy nomlarini qo'llab metonimiya hosil qilgan ya'ni **Chirchiq, Ohangar, Bekobod** nomlari orqali shu joyda yashovchi kishilarni nazarda tutgan. Mehmondo'stlik bizda buyuk qadriyat sanaladi. “**Qozoq oqinlariga**” she'ri ham shu ruhda yozilgan bu she'rdagi metonimiyalar esa bizning jonajon yurtimiz kishilari tasvirida ishlatilgan.

Yana der:“Bo'sh qolsak tunlar bo'lib jam  
“**Chordarvesh**”o'qirdik qurshab tanchani.

Bular tanimaydi Huvaydoni ham,  
Erta-yu kech o'ylar kino, tansani.<sup>10</sup>

Yoshlar tarbiyasi mavzusi bilan yo'g'rilgan yuqoridagi satrlarda adib sharq xalqlari orasida mashhur hisoblangan zarguzasht asar “**Chordarvesh**” nomini keltirish orqali metonimiya hosil qilgan. “**Chordarvesh**” sharq xalqlari orasida keng tarqalgan ishqiy-sarguzasht asar. Bu o'rinda aynan shu asar nazarda tutilgan. Bu asar ham bizning milliy mentalitetimizda alohida ahamiyatga kasb etadi.

Men es-hushim yig'masdan hali  
Qulog'imga dilbar kuy yetdi  
Nakamuri – yapon go'zali  
“**Tanovar**”ga charx urib ketdi<sup>11</sup>.

Misralardagi “**Tanovar**” so'zi metonimik ma'noda qo'llangan. “**Tanovar**”o'zbek xalq lirik kuyi hisoblanadi. Farg'ona vodiysida keng tarqalgan. O'n beshdan ortiq ashula va cholg'u yo'llari ma'lum. Ashula yo'llaridan ommaviy়lashgan. Ushbu o'rinda ham aynan shu kuyni ifodalash uchun ishlatilgan. Bu metonimik ifoda vositasida har bir kishining ko'z oldida milliy kuyimiz jonlanadi. Yuqoridagi o'rinda ham bog'liqlik asosida ma'no ko'chgan.

Erkin Vohidov ijodida metonimik ifodalar salmoqli o'rinni egallaydi. Uning she'rlarida shunday holatlar kuzatiladiki, bir she'rning o'zida bir necha o'rirlarda metonimiya hodisasi qo'llanilgan. Masalan, “O'zbek Navoiyni o'qimay qo'ysa” she'rida shunday holat kuzatiladi.

O'zbek **Navoiyni** o'qimay qo'ysa,  
Oltin boshning kalla bo'lgani shudir.  
**Bedil** qolib **Demyan Bedniyni** suysa,  
**Qora sochning** malla bo'lgani shudir.<sup>12</sup>

<sup>10</sup>Вохидов Э. Сайланма. 2-жилд. Шеър дунёси. – Тошкент, 2001. – В. 20.

<sup>11</sup> Вониев Э. Сайланма. 3-жилд. Умрим дарёси. Тошкент, 2001. – В. 64.

<sup>12</sup> Вониев Э. Сайланма. 3-жилд. Умрим дарёси. – Тошкент, 2001. – Б. 151.

Ushbu o‘rinlarda esa buyuk daho *Navoiyni* emas u yaratgan asarlari nazarda tutgan holda metonimiya hosil qilingan. ***Bedil, Demyan Bedniyda*** ham shaxs emas, ular yaratgan asarlarni sevib mutolaa qilish nazarda tutilgan va metonimiya hosil qilingan. Adibning aynan shu she’rida yana bir nechta metonimik hodisalarga duch kelamiz.

O‘zbek *Navoiyni* o‘qimay qo‘ysa,  
Aldangani alla bo‘lgani shudir  
Bilgich aziz bo‘lib yulg‘ich xor bo‘lsa,  
***Paytavaning salsa*** bo‘lgani shudir.<sup>13</sup>

Yuqoridagi misralarda ham adib *Navoiy, paytava va salsa* metonimiylaridan foydalangan. O‘zbek tilining izohli lug‘atida paytava qo‘njli poyabzal kiyilganda, oyoqqa o‘raladigan mato. Salla esa uzunligi bir yarim metrdan yetti metrgacha bo‘ladigan, do‘ppi, kuloh, telpak ustidan o‘raladigan sidirg‘a mato, doka; musulmon erkaklarning bosh kiyimi kabi ma’nolari keltirilgan. Paytava va salsa leksemalari ishlatalish o‘rniga ko‘ra metonimiya hosil qilgan. Bunda *paytava* oyoq leksemasini *salla* esa bosh leksemasini ifodalab kelgan. Navoiy dastlab ta’kidlab o‘tganimizdek, aynan Navoiy shaxsini emas, balki u yaratgan asarlarni anglatgan.

Nega *yapon* yuz yil yashar-u  
***O‘zbek*** buncha yoshga bormaydi  
Chunki yapon bizdek qorong‘u  
Sahar turib *osh*ga bormaydi.<sup>14</sup>

O‘zbek millatiga xos bo‘lgan urf –odatlar o‘rin olgan ushbu baytda ham metonimiya hodisasi uchraydi. Adib qadriyatlarimizni solishtirish jarayonida ikkita millat kishilarini nazarda tutgan holda *o‘zbek* va *yapon* metonimiyasini, bundan tashqari *osh* metonimiyasini qo‘llaydi. O‘zbek va yapon so‘zlarida o‘zbek millatiga mansub kishi yoki yapon millatiga mansub kishini ifodalash orqali metonimiya hosil qilingan. *osh* so‘zining o‘zbek tilining izohli lug‘atida pishirilgan issiq ovqat; umuman har qanday taom ovqat; yurtga *osh* bermoq; to‘y va boshqa ma’rakalarda katta qozonda *osh* damlab yurtni ziyofat qilish; ba’zi munosabatlar bilan o‘tkaziladigan ziyofatlar nomining tarkibiy qismi ma’nolari keltirilgan. Mavjud ma’nolardan ajralmagan holda *osh* so‘zi orqali ham metonimiya hosil qilingan, bunda *osh* o‘zbek millatiga xos marosimni ifodalab kelgan.

## MUHOKAMA

<sup>13</sup> O‘sha manba. – Toshkent, 2001. – B. 151.

<sup>14</sup> Воҳидов Э. Табассум: шеърий мутоиба, лутф-у латифалар . Тошкент, 2010.–Б. 274.

Erkin Vohidovning asarlarida milliy ruhiyat ifodasida ko‘chimlarning o‘rni, adibning ko‘chim turlaridan hisoblanmish ko‘p ma’nolilik, metafora, metonimiya hodisalardan o‘z ijod namunalarini yaratishda ushbu so‘zlardan foydalanish mahoratini tahlil qildik. Har bir ijodkorning milliylik, samimiylilik balqib turgan ijodiy kashfiyotlari tilni betakror birliklar, tasviriylif ifodalar bilan boyitishga, xalq ma’naviyatini yuksaltirishga xizmat qiladi. Maqolada shoir she’riyatida qo‘llangan metonimiyalarni tahlil qildik. Izlanishlarimiz davomida (*Ilik uzildi, Chordarvesh, Tanovor, Chirchiq, Navoiy, Bedil, O‘zbek, Yapon, osh*) kabi metonimiyalarni ajratdik va ularning izohini keltirib o‘tdik. Shu qatorda, Erkin Vohidov ijodida, yaratgan asarlarida hamo‘ziga xos tiniqlik, ohanrabolik, falsafiylik va mukammallikdan xalq ruhi ufurib turadi. Asarlarning ana shunday mukammal va to‘laqonli chiqishida til vositalardan hisoblanmish ko‘chimlarning o‘rni beqiyosdir. Badiiy adabiyotning asosiy vazifasi insonga estetik tarbiya berishdir. Yuqorida ta’kidlab o‘tganimizdek, ko‘chimlar Erkin Vohidov she’riyatining asosiy ifoda vositalardan sanaladi.

## XULOSA

Badiiy adabiyot namunalari u yoki bu shaklda inson ongiga milliy-ma’naviy ruhni singdiradi, aynan ana shu jahbada bizga Erkin Vohidovdek ijodkorlarning noyob durdoni asarlari, bu asarlarni to‘laqonli va mukammal chiqishida esa til vositalari yordamga keladi. Ularning asarlarini o‘rganish, har jihatdan tahlil qilish badiiy asarlarning muhim qirralarini ochishga xizmat qiladi.

## REFERENCES

1. Mirziyoyev Sh. Insonparvarlik, ezgulik va bunyodkorlik – milliy g‘oyamizning poydevoridir. – Toshkent, 2021.
2. Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. – Toshkent: O‘zbekiston, 2016.
3. Mirtojiyev M. O‘zbek tili semasiologiyasi. – Toshkent, 2010
4. Mirziyoyev Sh. Insonparvarlik, ezgulik va bunyodkorlik – milliy g‘oyamizning poydevoridir. – Toshkent, 2021. – B. 4.
5. Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. – Toshkent: O‘zbekiston, 2016.
6. Вохидов Э Сайланма. 1-жилд. Ишқ савдоси. – Тошкент, 2000. – 210 б
7. Вохидов Э. Сайланма. 2-жилд. Шеър дунёси. – Тошкент, 2001. –3006.
8. Вохидов Э. Сайланма. 3-жилд. Умрим дарёси. – Тошкент, 2001. – 3206.

- 
9. Ўсарова Л. И. Абдулла Орипов шеъриятида миллий рух ифодаси. Филол .фанлари ном.. автореф. – Тошкент ,2020. – 140.6
  10. Турсунов С ва бошқалар. Хозирги ўзбек адабий тили– Тошкент , 1992. – 280 б